



## SEN BARIBIR MUQADDASSAN, MUQADDAS AYOL!

**B. T. DAMINOV,**  
**ToshPTI rektori,**  
**Xalq deputatlari Toshkent**  
**shahar kengashi deputati**

Bahor kelishi bilan tabiatda uygʻonish hodisasini kuzatamiz. Bahorning ilk kunlaridayoq yurtimizda taniqli shoira, vafo va sadoqat kuychisi – Zulfiyaxonim tavalludi ayyomi hamda Xalqaro xotin-qizlar bayrami arafasida davlatimiz rahbari tomonidan Zulfiya nomidagi davlat mukofotiga munosib koʻrilgan yurtimizdagi 28 nafar eng iqtidorli qizlar ushbu mukofot bilan taqdirlanadi. Oʻzbekning Zulfiyalari bahorni boshlab kelishadi. Matonat, muhabbat, iffat, hayo kabi ayollarga xos boʻlgan nafis tuygʻular bahor tarovatini yanada goʻzallashtirib, tabiatga uygʻonish nafosatini boshlab beradi. Zero, har bir ayol ona degan muqaddas nom sharafiga loyiq insondir.

Oʻzbek tarixida bunday matonat egalari boʻlgan ayollar behisob sanaladi. Barchaga taniqli tariximiz malikalari va shoiralari hisoblangan Nodirabegim, Uvaysiy, Xonzodabegim, Anbar Otin kabi siymolar ayol muhabbati va nafosatini hayot va ijod yoʻlida keng yoritib bergan shaxslar edi. Bugungi kungacha

ularning ijod namunalari va hayot yoʻllari keng tatbiq qilinib, yoshlarimiz eʼtirofiga sazovor boʻlib keladi. Negaki, har bir ayol – kelajakning yaratuvchilaridir!

Bugungi kunda ayol va qizlarimiz jahon arenalarida yurtimiz bayrogʻini baland koʻtarib kelishmoqda. Faxr va iftixorga toʻlib yurtimizning madhiyasini jahon minbarlarida baland ovozda kuylab, haqiqiy oʻzbek ayolining matonatini koʻrsatayotgan bunday ayol va qizlarimiz turli sohada ilgʻor – u xoh sport, xoh nafis fazilat sanalgan ayolga xos kasblar, xoh adabiyot boʻlsin, bizning ayollarimiz betakroridir. Chunki xalqimiz orasida muqaddas hisoblangan oila va oʻz kasbini birdek olib borayotgan ayollarimiz ertangi kun egalari boʻlgan farzand tarbiyasidagi roli katta. Zero, Vatan – oiladan boshlanadi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev taʼkidlaganlaridek: “Oilada xotirjamlik boʻlsa, koʻngilda xotirjamlik boʻladi. Eng katta baxt mana shudir”. Darhaqiqat, bugun oilada va jamiyatda faol boʻlgan ayollar koʻp sonni tashkil qiladi. Bunga misol tariqasida seʼnatda ham katta mehnat koʻrsatayotgan Tanzila Norboeva, shoiralарimizdan taniqli shoiralар – Kavсар Turdiyeva, Zulfiya Moʻminova, Zebo

Mirzo, Farogʻat Yoʻldosheva, Munavvara Karimboyeva kabi koʻplab ayollarimizni sanab oʻtishimiz mumkin. Bunday ayollarimiz jamiyatga yetuk va barkamol farzandlarni tarbiyalash borasida katta ahamiyat kasb etadi. Barchamizga maʼlum boʻlganidek, bola tarbiyani, avvalo, onadan oladi. Demak, bugun qizlarimizning oʻqish va salohiyatiga yetarlicha imkon yaratishimiz kerak. Har bir oʻsib kelayotgan yoshlarimiz – ertaning umididir. Jumladan, bugun biz ularga taʼlimni bera olsak, yuqorida keltirib oʻtilgan shoiralарimiz singari elga taniqli hamda oʻz kasbining ustalarini tarbiyalagan boʻlamiz. Bu bilan biz Vatanga munosib farzand onalarini tarbiyalashga katta ahamiyat qaratishimiz kerak.

Ishonamanki, oliygohimizda tahsil olayotgan talaba qizlarimiz kelajakda yetuk kadr boʻlib, jamiyatimizda faol va oilasining fidoyi mehnatsevarlari boʻlishadi. Yoshlarimizga taʼlim-tarbiyada birdek xizmat qilayotgan institutimiz faxri boʻlgan ayol oʻqituvchi va ertamiz umidi boʻlgan talaba qizlarimizni yaqinlashib kelayotgan Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan tabriklayman. Zero, zamon va makon talabidan qatʼi nazar ayol muqaddasligicha qoladi.

## E'TIROFGA MUNOSIB AYOL



Ayol nomi hamisha muqaddas sanalgan. Bugun muhtarama ayollarimiz Prezidentimizning tegishli farmonlariga muvofiq, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mamlakatimizda aziz va mo'tabar ayol zotiga munosib ehtirom ko'rsatish, opa-singillarimizning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni va nufuzini oshirish, yurtimizning iqtisodiy qudrati va jahon miqyosidagi mavqeyini yuksaltirish borasidagi ulkan xizmatlarini munosib qadrlash maqsadida hamda oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash, aholi farovonligini ta'minlash, farzandlarimizni Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy

qadriyatlarga hurmat ruhida, sog'lom va barkamol etib tarbiyalash ishlariga qo'shgan katta hissasi, yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi samarali mehnati bilan tashabbus va ibrat ko'rsatib kelayotgani uchun bir guruh xotin-qizlar faxriy unvon, orden va medallar bilan mukofotlandi.

E'tiborlisi, yurtimizda olib borilayotgan tub islohotlarda faol qatnashgani uchun taqdirlanganlar qatorida Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti vakillarining ham mehnatlari etirof etildi. Jumladan, 2-darajali "Salomatlik" ordeni bilan Toshkent Pediatriya tibbiyot institutining ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i Ubaydullayeva Sevvara Abdullayevna mukofotlandi.

Albatta, ustozlarimizni ushbu yuksak e'tirof va unvonlar bilan institutimizning barcha yoshlari nomidan tabriklaymiz va kelgusi ishlarida ulkan zafarlar tilaymiz.

*Xasanxo'ja ABIDOV  
ToshPTI rektorining yoshlar masalalari bo'yicha  
maslahatchisi – institut Yoshlar ittifoqi bosh-  
lang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi, O'zbekiston  
Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi  
huzuridagi Yoshlar Parlamenti a'zosi*

## “SADOQATDA SAIDA SHUNCHA BO'LURMI, HAY-HAY?”

“Vaslingdin umididin dunyodan o'tib borgum, Qanoatda Saida filcha bo'lurmu, hay-hay?”, - deya yuragidan chiqqan to'liqlik satrlari bilan yuragimizda yashab kelayotgan taniqli shoirimiz, vafo timsoli – Saida Zunnunova hamda taniqli adib Said Ahmad hayoti va ijodi yurtimiz bo'ylab keng targ'ib qilinmoqda. Yurtimizning adabiy olam ijod ahli yaratayotgan badiiy maqola, ssenariy va hikoyalar asosida aktyorlar tomonidan suratga olingan “Said bilan Saida” filmi bugun barcha yurtimiz kinoteatrlarida namoyish etilayotgan bo'lsa, barcha oliygoh va o'quv muassasalarida yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilinayapti.

Kuni kecha bu ikki adabiyotimiz darg'alari bo'lgan ijodkorlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan

adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi. O'zbek, rus va lotin tillari kafed-rasi katta o'qituvchi-dotsentlari F.Akbarxo'jayeva, Z.Sodiqova, Z.Rasulova, G.Ahmedova, G.Quramboyeva, T.Valentinova, R.Berezovskayalar hamda oliygoh talaba-yoshlari ishtirokida bo'lib o'tgan bu kechada “Said bilan Saida” filmi namoyish etildi. Ushbu film jarayonida voqealar rivoji barcha kecha qatnashchilarini hayratga soldi. Bu ikki muhabbat va vafo timsolining hayot yo'llaridagi to'siqlar, Said Ahmadning nohaq ayblovlar bilan qamalishi jarayoni ishonarli tarzda yoritib berilgan. Ayniqsa, Saida Zunnunova obrazida umryo'ldoshining qamalishidan so'nggi boshiga tushgan tuhmatlar va hattoki sevimli turmush o'rtog'idan ajralish kabi

maslahat va ayblovlar jarayonida vafosi bilan jasorat ko'rsatgan o'zbek ayolining haqiqiy matonati timsolini namoyish etgan. Bu film barcha o'qituvchi va talabalarga bir zum bo'lsa-da mehr-muhabbatning haqiqiy ma'nodagi ifodasi, namoyishi, timsoli bo'ldi.

Beixtiyor birgina ayolning matonatida jamiyat g'ururi borligini his qilasiz. Bugun ushbu filmni barcha chet el davlatlari sevib tomosha qilishayotganlari haqida ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlarning guvohi bo'ldik. Bu e'tirofdan yuragimizda faxr tuyg'usi jo'sh uradi: o'zbek ayolining vafosini dunyo tan olmoqda!.. Sadoqatda Saida shuncha bo'lurmu, hay-hay?

*Munira HAMROQULOVA  
Ma'naviy va ma'rifiy o'quv  
ishlar bo'yicha mas'ul*

## ASSALOM, BAHOR!

“Har bahorda shu bo‘lar takror”... Shoirlar ta‘rifidagi bahor doim shunday bo‘ladi: ilk boychechakning qirlarda bo‘y ko‘rsatishi va qaldirg‘ochlarning qanotida o‘lkamizga fasllar kelinchagi bo‘lgan bahor fasli kirib keladi. Ana shunday boshlanadi bahor tarovati. Ko‘kka musavvir ona tabiat mo‘yqalami bilan kamalak chiza boshlaydi. Yomg‘irlarning sharros quyishi bobodehqonga rizq beradi. Jamalak taqqan qizchalarning qo‘shiqlari yana ko‘cha-ko‘yda jonlanadi: “Uchala qiz”, “Boychechak”, “Boshginam og‘riydi”, “Chitti gul”, “Chuy momo”... Bolakaylar esa “Chillak”, “Xo‘p mayda”, “Oqsuyak” kabi xalq o‘yinlari bilan bahordan darak bera boshlaydi. Ana o‘lkamizga bahor keldi!

Bahor tarovati bugun o‘lkamizning barcha hududlarida jo‘sh urmoqda. Ayniqsa, o‘zbek ayollarining vafo va sadoqat timsoli bo‘lgan Zulfiyaxonim tavallud ayyomi keng nishonlab kelinadi. Bahor fasli va Zulfiyaxonim tavalludi o‘zgacha tarovat va o‘zgacha zavq bilan biz talabalarining-da bahri dilini ochadi. Talabalar turar joylarida tozalik ishlari, hasharlar va she‘rxonlikni boshlab yuborishadi. Mehr va muhabbatga to‘la kunlar boshlanadi...


ToshPTI 1-talabalar turar joyida 1-mart kuni “Assalom, bahor” deb nomlangan bahordek tarovatli tadbir bo‘lib o‘tdi. Tadbirga professor-o‘qituvchilar, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi xodimlari, axborot-resurs markazi xodimlari hamda talabalar turar joylarida istiqomat qiladigan talabalar ishtirok etishdi. Tadbir avvalida O‘zbek, rus va lotin tillari kafedrasi mudiri, bolalar shoirasi Kavsar

opa Turdiyeva so‘z oldilar: “Bahor – fasllar ichidagi yosharish fasli bo‘lsa, talabalik – yoshlikning eng bilimga chanqoq davridir. Mana shu davrdan haqiqiy kasb egalari shakllana boshlaydi. Hayot g‘alvirini ko‘taradigan davrda haqiqiy salohiyat egalari saralanib boradi. Bahor va yoshlik inson umrining eng go‘zal onlaridir”. Darhaqiqat, ustoz so‘zlaridagidek talabalik va bahor fasli go‘yo chambarchas bir davrdir.

Tadbir davomida talaba-qizlar tomonidan sevimli shoiramiz Zulfiyaxonim, taniqli adibimiz O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga bag‘ishlab taqdimot tashkil qilinib, barcha tashrif buyurgan mehmonlarimizga birdek manzur bo‘ldi. Ayniqsa, bahordek go‘zal sahna ko‘rinishlari barchaga birdek kayfiyat bag‘ishladi. Shuningdek, tadbir davomida “Kamqonlik kasalligining oldini olish”, “Ayollarda ko‘krak saratoni kasalligining uchrash sabablari”, “Mendeleev jadvalining yaratilish tarixi” mavzulari asosidagi turli taqdimotlar namoyish etildi. Talaba yoshlardagi sog‘lom ma‘naviy immunitetni hosil qilishda ko‘mak hisoblangan bu kabi tadbir va taqdimot namoyishlari barchamizga yaxshi kayfiyat ulashdi. Tadbir so‘nggidagi qizlarning lapar aytishuvlari yanada ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi. Zero, bahor – umrning yoshlik onlarini mazmunga boy qila oladigan, barchaga ko‘tarinki kayfiyat ulasha oladigan betakror fasl!

**Otabek JUMAYEV**  
**Muruvvat AKBAROVA**





## HAQIQIY O‘ZBEK QIZI

Rus tili fani bo‘yicha respublikada bo‘lib o‘tgan onlayn olimpiada g‘olibi bo‘lgan Farangizning har tonggi shukronalikdan boshlanadi. Albatta, sog‘lik va salomatligi, yaqinlari, ota-onasi borligi, o‘zi orzu qilgan oliygohda tahsil olayotganligi uchun yaratganga shukronalikdan

boshlangan kun samarali bo‘lishiga Farangiz ishonadi. Yana bir shukronasiga esa uning yo‘lida doim yaxshi insonlar uchragani uchundir.

Farangiz Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida tug‘ilgan. Hozirda Toshkent Pediatriya tibbiyot instituti talabasi. U ota-onasining sevinchini ko‘rish uchun o‘z ustida ishlaydi. Shu bilan birgalikda oiladagi halollik, mehr-oqibat, vijdon, to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini farzandlarda shakllantirish ulug‘ qadriyat sifatida ana’anaga aylangan. Buning misoli tariqasida ota-ona tilidagi ma’noga boy maqollarni keltira olamiz. Masalan, “Qolgan ishga qor yog‘ar” maqoli, ya’ni bugungi ishni ertaga qoldirmaslik kerakligini doim eslatib tursa, “Qish g‘amini yozda ye” degan maqol esa hamma narsaga tayyorgarlikni o‘z vaqtida ko‘rish lozimligini anglatishini bilgan Farangiz keyingi kurs darsliklarini yozgi ta’lida mustaqil o‘rganib, o‘z ustida ishlaydi. Men talabalarimga mustaqil ta’limning samaradorligini tushuntirish jarayonida shuni ta’kidlayman: “Masalan, kimdir biror manzilga ota-onasi bilan birgalikda borishdi, deylik. Yoki o‘zi qo‘lida manzil joyi ko‘rsatilgan manbaa bilan manzilga otlandi. Albatta, u o‘zi yolg‘iz borganida qiyinchiliklarga duch keladi, ammo manzilga qaytadan borish kerak bo‘lsa, u endi adashmaydi. Chunki u maqsad va mo‘ljalni endi to‘g‘ri ko‘ra ola-

di hamda fikrlaydi. Shuningdek, u qiyinchilikdan chiqish yo‘llarini fikrlashga egadir”.

Ayni damda Farangizning ota-onasi ham farzandlarda mustaqillik ko‘nikmalarini shakllantirib borishgan hamda har bir g‘alaba mehnat va sabrni talab qilishini o‘z tarbiyalari jarayonida ibrat qilib ko‘rsatishgan. Atrofdagilarga: xoh u inson, xoh jonivor bo‘lsin, avvalo, mehr-oqibat birinchi o‘rinda turishini o‘rgatganlar. Ota-onaning mana shu mehnatlarining ijobati sifatida Farangiz Sirdaryodan poytaxtimiz – Toshkentga kelib oliygoh talabasi sharafiga erishish bilan birgalikda, u o‘zida mujassamlashgan oila tarbiyasidagi ana’analari bilan uyidan uzoqda istiqomat qilishdagi qiyinchiliklarni yengib o‘ta oldi. Masalan, Farangiz bir rus kampsirkida ijarada turardi, ammo mehr millat tanlamas ekanki Farangiz uchun bu ayol o‘z onasi kabi mehribon va yaqinlaridek bo‘lib ketishgan. Bir kuni Farangiz “Babulya” deb chaqiradigan buvijon o‘z ko‘zoynagini qidira boshladi, buvijonga yordam berish uchun u ham otlandi. Ammo qancha izlashmasin topisha olmadilar. Qarashsalarki, ko‘zoynak buvijonning boshida, ammo buvijon xotirasidan ko‘tarilgan ekan. Farangizga bu vaziyat har bir ishni boshlashdan oldin, avvalo, o‘ylash lozimligini tushuntirdi.

U bolaligidayoq bo‘sh vaqtini to‘g‘ri taqsimlashga katta ahamiyat berardi, ayniqsa, dam olish kunlarida kitob mutolaasiga qiziqardi. Farangiz “Kusto sarguzashtlari” nomli teledasturni va rus adabiyotini sevib mutolaa qilardi. Bunga sababchi bo‘lgan otasi rus tili va adabiyoti fani o‘qituvchisidir. Farangizdagi rus tili va adabiyotiga bo‘lgan qiziqish yaqinda ushbu fan bo‘yicha fan olimpiadasidan respublikadagi g‘olibalikni olib keldi. Ammo u bu bilan cheklanib qolgani yo‘q. Farangiz kelajakka qarab o‘z odobi va ilmi bilan yo‘lga chiqqan haqiqiy o‘zbek qizidir.

*Kavsar TURDIYEVA*

## IJOD VA HAQIQAT



“Adabiyot – atomdan kuchli”, - degan edi taniqli adibimiz Abdulla Qahhor. Darhaqiqat, adabiyot inson ruhini yuksaltiruvchi kuchdir. Asrlar osha o‘zbek adabiyoti qancha chegaralarni ko‘rdi, ammo u “ruhiy kamolot” vositasiligacha qolmoqda. Adabiyot bo‘lmaganida, balki, haqiqatni bilmas edik. Adabiyot haqida so‘z borar ekan taniqli o‘zbek nasrining qalami o‘tkir ijodkorlaridan Shukur Xolmirzayev ijodi haqida keltirmay bo‘lmas. Institutimizda “Qadimda bo‘lgan ekan”, “Ko‘k niva”, “O‘zbeklar” kabi ko‘plab hikoyalar muallifi bo‘lgan Shukur Xolmirzayev ijodi haqida davra suhbat tashkil qilindi.

Taniqli adabiyotshunos olim Sayyora Xolmirzayeva institutimizga tashrif buyurar ekanlar, avvalo, farzand va shogird sifatida adib xotirasini yod etti. Shundan so‘ng taniqli bolalar shoirasi Kavsar opa Turdiyeva so‘z oldilar: “Adabiyot bu – ma’naviyat quroli”, - dedilar ustoz. Suhbat davomida talaba-yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan adib hayoti va ijodi haqidagi savollariga Sayyora opadan javob olishdi.

“Haqiqat va ijod yonma-yon yuradi, - derdilar dadam rahmatlik. Ularning ijod mahsullarini nashrdan chiqarish oson bo‘lmagan. Hozirga kelib 5 ta tom kitobdan tashkil topgan ijod mahsullarining har so‘zida haqiqat bor. Dadam oddiy va sodda tilni sevardi. Ijodda o‘zlarining tili va uslubiga ega ijodkor edilar. Bugun men ham ustoz maqomini olib shuni tushundimki, qalamida haqiqat bilan yashash anchagina murakkab ish ekan. Xalqning dardini ko‘tarish haqiqiy ma’nodagi matonatdir”, - deya ta’kidlar ekan Sayyora opa nafaqat farzandlik burchi, balki, ota haqiqati davomchisi sifatida talabalarimizda ajoyib taassurot uyg‘otib, adib hayoti va ijodiga bo‘lgan qiziqishni yanada yuksaltirdi.

Adabiyot – haqiqatning onasidir. Badiiy uslub esa inson ruhining mukammalligini ifoda etadi. Ijod bu – asrlarning haqiqatini so‘zlovchi ruhiy yetuklik hisoblanadi. Zero, ijodkorlikni o‘rganib bo‘lmaydi. Uni Alloh ruhga bog‘lab yaratgan.

*Rohilabonu G‘O‘ChCHIYEVA*

## MEHR-MUHABBAT TIMSOLI

Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko‘rki bo‘lgan xotin-qizlarni e‘zozlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish xalqimiz uchun azal-azaldan buyuk qadriyat bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Negaki, ayol bu – qalbi mehrga kon mo‘jiza demak. Zero, dunyodagi barcha go‘zallik ayol nomi va iffatiga taqqoslanadi. Hattoki Vatanni ham onamizga qiyoslab, Ona Vatan deb ataymiz.

Yurtimizda 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan joylarda keng bayram bo‘lib o‘tadi. Jumladan, oliygohimizda tashkil qilingan “Ayol – mehr-muhabbat timsoli” nomli tadbirga “Adolat” partiyasi Yunusobod tumani kengashi raisi, referent A.Nosirov mehmon bo‘ldi. Xotin-qizlar qo‘mitasi boshlang‘ich tashkiloti raisi D.Ustaazizova, Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i A.Xudayberdiyev, xodimlar kasaba uyshmasi raisi A.Mannanov hamda oliygohimizdagi barcha ayol o‘qituvchilar va talabalar ushbu tadbirda ishtirok etishdi. “Vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o‘rin va mavqega ega. Ayollarimiz mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, siyosiy-iqtisodiy hayotidagi barcha sohalarida, xususan, davlat boshqaruvi va vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik,

fermerlik, ta‘lim, ma‘rifat, madaniyat, ayniqsa, bugun butunjahonning dolzarb muammosiga aylangan pandemiya sharoitida sog‘liqni saqlash sohasida ayollarmiz va shifokor, hamshiralarmiz anchagina jonbozlik ko‘rsatishdi. Buning uchun ayollarimizning matonatiga tasanno aytamiz, - deya so‘z boshladilar oliygohimiz mehmoni A.Nosirov. – Darhaqiqat, bugun barcha sohalarida ayol-qizlarimizning mehnati katta. Avvalo, oiladagi qiz farzandlarning tarbiyasiga katta e‘tibor qaratish kelajakdagi bir jamiyatning farzandini, oilasini tarbiyalash bilan tengdir”.

Bayramga atalgan O‘zbekiston san‘at va madaniyat instituti talabasi Komila Farxodova o‘z ijrosidagi qo‘shiqlari barcha tadbir ishtirokchilariga birdek manzur bo‘lgan bo‘lsa, havaskor dutorchi qizlarning chiqishlari yanada a‘lo kayfiyat bag‘ishladi. Tadbir so‘ngida oliygoh ayol xodimlariga taqdim qilingan esdalik sovg‘alari yanada ko‘tarinki kayfiyat ulashdi. Zero, muhtarama ayollarimiz bundanda yuksak e‘tirofga munosibdir. Donishmand xalqimiz ta‘kidlaganidek: “Jannat – onalar oyog‘i ostidadir”.

**A.XUDAYBERDIYEV**

*Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi boshlig‘i*

## ASR OSHA YASHAB KELGAN SO‘Z

“Odamiy ersang, demagil odamiy, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami”, - deya besh asr muqaddam ta‘kidlab o‘tgan edi so‘z mulkingning sultoni hazrati Alisher Navoiy. Darhaqiqat, asr osha hamon siyohi qotmagan bu jumalalarda hazrat Navoiyning nafasi bordek. Iymon va imkonning birdamligi bor joyda taraqqiyot bo‘lishini, odam bo‘lsang xalq g‘amini ye, deya izoh bergan Navoiy hazratlari o‘z misralariga.

O‘zbek adabiyotining ustuni hisoblangan Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan yurtboshimiz farmonlariga binoan joylarda “Navoiyga ehtirom” nomli davra suhbatlari keng tarzda olib borilmoqda. Kuni kecha oliygohimizda “Navoiyga ehtirom” nomli davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi. ToshPTI xotin-qizlar bilan ishlash boshlang‘ich tashkiloti raisi D.Ustaazizova, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, shoira Kavsar opa Turdiyeva, ambulatoriya tibbiyoti kafedrasini dotsenti M.Devorova, o‘quv ishlari bo‘yicha mas‘ul R.Berezovskaya, ilmiy ishlar bo‘yicha mas‘ul N.Mehmonova, kafedraning katta o‘qituvchilari – M.Mahkamov, Z.Sodiqova, filologiya fanlari nomzodi G.Quramboeva, G.Ahmedova, Z.Rasulova, N.Shodmonova, F.Akbarxo‘jayeva, oliygohimiz talabalari hamda oliygohimizda tashrif buyurgan mehmonimiz O‘zbekiston yozuvchilar



uyushmasi a‘zosi, shoir Abdumajid Azimov bilan birgalikda qizg‘in davra suhbatlari bo‘lib o‘tdi.

“Navoiyni tanimasak, o‘zligimizni anglamaymiz. Nechukki, hazratning qalamida haqiqat bor, inson esa doimo haqiqat izlab yashaydi”, - deya shoir Abdumajid Azimov suhbatni she‘riy satrlari bilan yakunladi. Darhaqiqat, asrlarni qaritib kelayotgan Navoiy hazratlarining qalamida bugungi nafas bor. Bugungi kun uchun dolzarb va ahamiyati katta tuyg‘ular bor. Zero, Navoiy hazratlari satrlari bilan o‘z adabiy umrini yozib ketgan ijodkordir.

**Munira HAMRAQULOVA**

*Ma‘naviy-ma‘rifiy o‘quv ishlari bo‘yicha mas‘ul*

## YOSH LARNI KASBGA YO‘NALTIRISH USTUVOR MASALA



“Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi xalqaro mehnat bozori talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash, professional ta’limning mazmuni va sifatini oshirish dasturini ishlab chiqsin”, - deya yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zlarining o‘qituvchilar va murabbiylar kunidagi ma’ruzalarida ta’kidlagan edilar. Bugungi kunga kelib ushbu islohotlarning ijobati sifatida yurtimizdagi barcha oliy ta’lim muassasalariga yurtimiz hududidagi maktablarni birlashtirish, ya’ni oliy ta’lim o‘qituvchilari maktab bitiruvchilari

bilan ishlash masalalari yo‘lga qo‘yilmoqda. Maktab o‘quvchilaridagi mavjud qiziqishlar bilan ishlash va yanada oliy ta’limga bo‘lgan qiziqishlarini shakllantirish bo‘yicha oliy ta’lim o‘qituvchilari va professorlari maktablarda uchrashuv va davra suhbatlari, malaka darslarini olib borishmoqda. Yurtboshimiz boshchiligida olib borilayotgan bu kabi islohotlarning barchasida ko‘zlangan yagona maqsad – yoshlarni yetuk kadr sifatida yetishib chiqishlariga barcha shart-sharoitlarni yaratishdir.

Kuni kecha Toshkent Pediatriya tibbiyot institutiga birlashtirilgan Yashnobod tumanidagi 226-maktabda “Ustoz-shogird an’anasini ulug‘ qadriyat” nomli davra suhbatini bo‘lib o‘tdi. Ushbu uchrashuvga O‘zbek, rus va lotin tillari kafedrasining mudiri, taniqli shoira Kavsar opa Turdiyeva, Tibbiy biofizika va informa-

tika kafedrasining mudiri Dilshod Qarshiyevlar institutimiz vakillari sifatida tashrif buyurishdi. Maktab direktori N.Niyozov mehmonlarni maktabdagi barcha yaratilgan yangicha shart-sharoit va iqtidorli o‘quvchilarning ijodiy ishlari bilan tanishtirdi. Buyuk bobokalonlarimiz ijodiy olamiga bag‘ishlangan davra suhbatini Kavsar opa Turdiyeva Navoiy hazratlarining g‘azal va ajoyib suhbatlari bilan ochib berdilar: “Bugun men sizlarga havas qilaman, bolajonlarim. Barcha shart-sharoitlar yaratilgan maktabda tahsil olayapsizlar. Bugun sizlarga oliygoh ustozlarining o‘zlari sevgan kasbingiz haqida yo‘nalish ko‘rsatadi. Ustoz-shogird an’anasini siz maktabdanoq oliygoh ustozlari bilan birga boshlash imkoniga egasizlar, bolajonlar. Bularning hammasi yurtboshimizning siz – yoshlarga yaratayotgan yangicha islohotlaridir”.

Maktab o‘quvchilarining adabiy-badiiy kechadagi chiqishlari barchamizga birdek manzur bo‘ldi. Kecha so‘nggida maktab o‘quvchilari o‘zlarini qiziqtirgan savollariga mehmonlardan javob olishdi. Zero, bugun ta’lim – makon va zamon bilan emas, yoshlar bilan shakllanadi. Chunki yoshlar uchun barcha sharoit eshiklari ochiq.

**Ma’rifat DEVOROVA**  
*Ambulatoriya tibbiyoti  
kafedrasining dotsenti*



## ADIBLAR XIYOBONIDAGI TADBIR

2021-yil 9-fevral kuni Adiblar xiyobonida joylashgan Berdaq haykali oldida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektori, professor B.T.Daminov boshchiligida institutning bir guruh xodimlari va talaba-yoshlari ishtirokida g'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi.

Ushbu tadbirda Alisher Navoiyning hayoti, ijodi, g'oyalari va uning bosib o'tgan umr yo'liga nazar tashlandi. Mutaxassislar, yoshlar va barcha tadbir ishtirokchilari buyuk shoir haqidagi o'z fikr-mulohazalari bilan o'rtoqlashdilar.

Tadbir doirasida institut talabalar teatr studiyasi tomonidan



Alisher Navoiy dostonlaridan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

Bundan tashqari, uchrashuvda Toshkent pediatriya tibbiyot insti-

tuti professor-pedagoglari va yoshlari adib ijodidan - g'azallaridan namunalar o'qib berdilar.

**X. ABIDOV**

## XALQ DARDINI KUYLAGAN SHOIR

Qoraqalpoq xalqining demokrat shoiri Berdaq she'riyati g'oyaviy puxtaligi, hajman salmoqdorligi, janrlar rang-barangligi, mazmunan boyligi bilan ijod maydonida o'ziga xos o'ringa ega.


Xalqiga faqat yaxshilikni, farovon hayotni istagan shoir ijodida och-yupun kambag'allarning turmush tarzi, amaldorlarning zug'umlari haqqoniy aks ettiriladi. Ijodkorning "Xalq uchun", "Yaxshiroq", "Soliq", "Izlar edim", "Yoz kelurmu" va boshqa ko'plab she'rlarida fikrimizni isbotlovchi satrlarga duch kelish mumkin:

*Zolimlar tinglamas faqirning zorin,  
Ular o'ylar o'z foydasin, o'z korin,  
Hech qachon zolimlar qo'ldagi borin  
Ep ko'rmaslar, bor bo'lsa-da, xalq uchun.*

Yoki:

*Bulturgidan bu yil yomon,  
Qanday bo'ldi bu shum zamon.  
Kambag'allar qolmay omon,  
O'n tilladan keldi soliq.*

Shuningdek, Berdaqning nazm gulshanini kezgan kitobxon shoirning "Kim aytar", "Bo'lgan emas", "Ko'rindi", "Bo'lmadi" kabi she'rlarida uning qanchalar adolatni, adolatli podshoni orzu qilganini sezadi. Bu jihatdan Berdaq fikrlarining g'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy ijodi bilan naqadar hamohang




ekanligi ko'zga tashlanadi. Bu esa turkiy xalqlarning qanchalik hammaslak, hamfikrligidan dalolatdir.

Xalqini sevgan, ardoqlagan shoir, uning o'lmas asarlari asrlar osha o'z qadrini yo' qotmadi, balki yana ham sayqallandi, qadr topdi.

**T. ABDISHARIPOVA**

*Toshkent pediatriya tibbiyot instituti akademik litsey  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Berdaq ijodi  
bo'yicha ilmiy-amaliy maslahatchi*



### Юлия Дзивинская

Писать стихи начала ещё в школьные годы. Сначала это были простые, рифмованные четверостишья. Но со временем поэзия становилась более содержательной и серьезной.

Вообще поэзия – это тонкое искусство. Каждое лирическое произведение пишется с душой.

Я думаю, чтобы написать стих, нужны эмоции: лирика – это чувства, спрятанные в словах. А чтобы были эмоции нужны ситуации. Следовательно, каждое стихотворение имеет свою почву. Читая произведения, можно увидеть внутренний мир автора, прочитав его мысли, взглянуть на мир его глазами. И если люди, которые читают мои стихи, могут понять весь смысл, заложенный в произведение, значит, цель достигнута.

Поэзия расправляет мои крылья и даёт возможность взлетать выше.

### Прощай, коллеж

Чистый колпак, белоснежный халат.  
Вот медсестра, а рядом медбрат.  
Доброе сердце и ласковый взгляд -  
Всё украшает наш скромный наряд.  
Целых три года учили вы нас  
Распознавать, где инсульт и коллапс,  
Как при инфаркте больного спасать,  
Делать инъекции, мази втирать.  
Детский массаж и электрофорез,  
Этиология, патогенез,  
Гипертермия, пузырьный занос,  
Малигнизация, аскаридоз.  
Термины все нам понятны теперь -  
В мир медицины открыли мы дверь.  
Это лишь только начало пути:  
Всё интересное ждёт впереди.  
Наша профессия будет сложна,  
Здесь ведь решительность, точность нужна.  
Анализировать, сопоставлять,  
Ставить диагноз, лечить, помогать -  
Всех важных навыков просто не счесть,  
Доктором быть - это гордость и честь.

## O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

*Professor-o'qituvchilar tarkibi bo'yicha quyidagi kafedralar lavozimlariga TANLOV e'lon qiladi:*

**KAFEDRA MUDIRI:** Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi; Otorinolarinologiya, bolalar otorinolarinologiyasi, bolalar stomatologiyasi.


**DOTSENTLAR:** Fiziologiya; Fakultet pediatriya; Bolalar yuqumli kasalliklari.

**KATTA O'QITUVCHILAR:** O'zbek tili va adabiyoti; Pedagogika va psixologiya; Gematologiya.

**ASSISTENTLAR:** Patologik anatomiya, Umumiy xirurgiya, Epidemiologiya, 2-Gospital pediatriya no-an'anaviy tibbiyot asoslari; Teri-tanosil, bolalar teri tanosil kasalliklari OITS, UASh-terapiya; Asab kasalliklari va bolalar asab kasalliklari, Fakultet ichki kasalliklari, XDT, kasb kasalliklari, gospital ichki kasalliklari, ichki kasalliklari propedeutikasi; Endokrinologiya; Shoshilinch pediatriya, halokat tibbiyoti.

**Tanlov muddati – e'lon chiqqan kundan 1-oy. Manzilgoh Bog'ishamol ko'chasi 223, Tosh PTI.**

**Avtobuslar: 115, 19 ToshPTI bekati. 09.03.2021.**

 <p><b>PEDIATR</b></p> <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNT JAMOASI NASHRI ORGAN TRUDOVOGO KOLLEKTIVA TASHKENTSKOGO PEDIATRICHESKOGO MEDITSINSKOGO INSTITUTE</p>	<p><b>Tahrir kengashi:</b> D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, K.N. Haitov, S.S. Gulyamov, D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev, S. Nurxodjayev A. Valiyev, A.A. Kудayberganov, <b>Nashr uchun mas'ul:</b> R. G'ochchiyeva</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva <b>(Bosh muharrir o'rinbosari),</b> A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, H. Rasulov S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
--	---	---	--